

**KITOB TUMANINING IQTISODIY SALOHIYATI VA RIVOJLANISH
XUSUSIYATLARI**

Ochilov Feruz Ergash o'g'li

O'ZMU magistranti

Annotasiya: maqolada mamlakatimiz hududiy iqtisodiy tuzilmasining muhim bir bo'g'ini sifatida, Kitob tumanining viloyatda ,mehnat taqsimoti tutgan o'rni va roli,iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining geografik masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: viloyat, resurs , savdo do'konlari, kulolchilik buyimlari, aholi, sanoat uzeli, hunarmandchilik ,ishlab chiqarish salohiyati

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyoti, uning turli mintaqalari xo'jaligining o'zaro mutonasib hududiy uyg'unligidan tashkil topadi. Shu sababdan mintaqalar viloyatlarning mamlakat hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rni, samarali xo'jalik ixtisoslashuvi va yuqori ishlab chiqarish salohiyati, mazkur davlatning barqaror rivojlanishini taminlab qolmay uning tashqi iqtisodiy faolligi hamda jahon xo'jaligi tizimlariga integratsiyalashuviga zamin yaratadi .Bu borada har bir mintaqaning tabiiy , mineral xom-ashyo va demografik salohiyati poydivar bo'lib xizmat qilinishi takidlash joiz va bu jihatdan Kitob tumani –Qashqadaryo viloyatida o'ziga xos xusiyatlari bilan ajralib turadi Kitob tumani O'zbekiston Respublikasi ,Qashqadaryo viloyatidagi tuman. Viloyatning shimoliy – sharqida, 1926- yil sentabrda tashkil etilgan. 1962 yilda 24 – dekabrda Shahrizabz tumani bilan birlashtirilgan.1968- yilda 25 dekabrda qayta tuzilgan. Viloyatning , Chiroqchi, Shahrizabz tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 1,75ming km kv. Aholisi 271,1 kishi , aholining soni jihatidan viloyat tumanlari orasida 4- o'rinni egallaydi.

Kitob tumani viloyatning eng boy tarixiga, rivojlanayotgan tarixiga ega. Kitob nomi forscha kift- yelka, ob –suv so'zlaridan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Kitob shahri yozma manbalarda XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab uchraydi.

Shahar atrofi baland va mustahkam mudofa devori bilan o'rab olingan bo'lib, uning Jangallik, Govxona, Ravatoq, Qorapoycha, Xo'jaro'shnoyi, Lo'lixona, va Kunchiqar nomlari bilan yuritiladigan, 7 ta mustahkam darvozalari bo'lgan. Kitob bekligi Buxoro amirligi tarkibiga kirgan. Kitob shahri qadimdan Shahrizabz bilan yonma-yon joylashganligi va bu yerdan Buyuk Ipak yo'li o'tganligi sababli har yili yuzlab, minglab savdo karvonlari o'tib turgan. Shahar aholisining ko'pchiligi hunarmandchilik va savdo bilan mashg'ul bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XVIII asrning oxiri XIX asrning ikkinchi yarmida shaharda to'quvchilik, bo'yoqchilik, gilamdo'zlik, kashtado'zlik, do'ppido'zlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, ko'nchilik, mahsido'zlik, kovushdo'zlik, kulolchilik, duradgorlik, tegirmonchilik, juvozkashlik kabi 30 dan ortiq hunar turi mavjudligi va u yaxshi rivojlanganligi qayd etilgan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1870-yilning oxirida Kitob shahridagi 51 ta guzarda 3700 xonadon bo'lib, unda 18500 nafar aholi yashagan. Shaharda 3 ta madrasa, 9 ta masjid, maktablar, 12 ta karvonsaroy, 2 ta bozor maydoni, yuzlab savdo do'konlari va rastalar bo'lgan. XIX asrning 80-90 yillariga kelib, shaharda olacha va chit to'qish, bo'z, namat, ipak matolar, chodir, palos, shollar, rang-barang kashtalar tayyorlash, ayniqsa, tez rivojlanadi. Kitoblik hunarmandlar tayyorlagan sifatli buyumlar yerli aholi ehtiyojini ta'minlash bilan birga tashqi bozorga ham ko'plab chiqarilganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Zeb-ziynat, kulolchilik, buyumlari, gilamlar, iroqi do'ppilar, o'ymakoriy eshiklar Turkiston o'lkasida ochilgan 1886 hamda 1890-yilgi ko'rgazmalarda yuqori baholangan. XX asrning boshlarida shaharda shoyi to'qish, ip yigirish, turli matolar to'qish, ko'nchilik, bo'yoqchilik, gilam va palos to'qish hunari ancha taraqqiy etgani, mahsulot sifati yaxshilanganligi ko'zga tashlanadi. Negaki, 1909-yilda Toshkentda ochilgan Turkiston o'lka hunarmandchilik va sanoat ko'rgazmasida Kitoblik qo'ligul hunarmandlarning faolroq qatnashganliklari va ular tayyorlagan buyumlar kumush va bronza nishonlar, diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangani bunga misol.

XX asrning 20-yillariga kelib, Kitob shahrida hunarmandchilik korxonalari bilan yonma-yon paxta tozalash zavodlari, moy ishlab chiqarish korxonasi,

pillakashlik fabrikasi va bir necha artellar faoliyat ko'rsata boshladi. Kitob tumani viloyatning asosiy temir va avtamabil yo'llari o'tgan hududda, qadimdan dehqonchilik intensiv rivojlangan keng voha bilan keng yaylavlar va qulay sanoat uzeldida joylashgan. Mazkur tuman o'zining agraiqlimiy, mineral xom –ashyo salohiyati ega bo'lishi iqtisodiy rivojlanishi bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Shuningdek tuman katta mineral xom ashyo salohiyati ega bo'lishi viloyatda yalpi sanoat maxsulot ulishida ham o'z aksini topgan. Kitob tumani qulay yer suv resurlari ayniqsa ulkan agro-iqlimiy salohiyati ega ekanligi, agrar sohani qadimdan xo'jalikning ananaviy hamda yetakchi movqega ega bo'lib kelishini taminlaydi. Kitob tumani viloyat hududiy mehnat taqsimotida o'zining agrosanoat, xususan sabzavotchilik, chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turadi. Shuningdek tuman o'zining qurilish hamda tog'-kon sanoati tarmoqlari bilan ham ajralib turadi.

.Ayni vaqtda viloyat miqyosida ishlab chiqarish kuchlari tez rivojlanayotgan hududda o'rnashgan. Bugungi kunga kelib tuman, viloyatning yirik madaniy va iqtisodiy markazidir. Paxta tozalash, vino zavodlari va boshqa korxonalar mavjud. Kenglik stansiyaning biridir. Kitobda tuman hokimiyat binosi, aloqa bo'limi, mehmonxona, madaniyat uyi, umumiy ta'lim maktablari, avtastansiya, madaniyat va istirohat bog'i, stadion va tennis korti, tuman markaziy kasalxonasi, paliklinika, dorixonalar, savdo maishiy xizmat shabchalari bor.

Foydalanilgan adabiyatlar.

- 1 Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T. 2014.
- 2 Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Q. 2021